

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Yakubjonova Maftunaxon Islomjon qizi,

Qo'qon davlat universiteti, dotsent.

e-mail: maftunaxon2103@gmail.com , ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1346-6080>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagogik faoliyat mazmunining o'zgarishi sun'iy intellekt vositalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'limni raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar— o'quvchilarda tanqidiy fikrlashning susayishi, texnologik qaramlik, axborot xavfsizligi va plagiat kabi xavflar atroflicha yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning raqamli va media savodxonligini oshirish hamda ta'lim jarayonida SI texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy taklif va yechimlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim transformatsiyasi, pedagogik faoliyat, sun'iy intellekt, raqamli resurslar, TPACK modeli, tanqidiy fikrlash, kasbiy kompetensiya, media savodxonlik, innovatsion yondashuv.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Якубжонова Мафтунахон Исломжон кизи

Кокандский государственный университет, доцент.

Аннотация.

В данной статье проанализированы теоретико-методические основы изменения содержания педагогической деятельности в условиях современной трансформации образования, а также интеграции средств искусственного интеллекта в учебный процесс. Наряду с этим всесторонне освещены актуальные проблемы, возникающие в процессе цифровизации образования—снижение критического мышления у учащихся, технологическая зависимость, риски информационной безопасности и плагиата. На основе результатов исследования разработаны практические предложения и решения по совершенствованию системы подготовки будущих педагогов, повышению их цифровой и медиаграмотности, а также по использованию технологий ИИ в образовательном процессе.

Ключевые слова: трансформация образования, педагогическая деятельность, искусственный интеллект, цифровые ресурсы, модель TPACK, критическое мышление, профессиональная компетентность, медиаграмотность, инновационный подход.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY IN THE CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION

Yakubjonova Maftunaxon Islomjon qizi,

Kokand State University, Associate Professor.

Abstract.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the transformation of the content of pedagogical activity in the context of modern educational transformation, as well as the integration of artificial intelligence tools into the educational process. Along with this, the article comprehensively examines the urgent problems arising in the process of digitalization of education — the decline of critical thinking among students, technological dependency, and risks related to information security and plagiarism. Based on the research findings, practical proposals and solutions have been developed for improving the system of training future teachers, enhancing their digital and media literacy, and for the use of AI technologies in the educational process.

Keywords: educational transformation, pedagogical activity, artificial intelligence, digital resources, TPACK model, critical thinking, professional competence, media literacy, innovative approach.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimida yuz berayotgan global o'zgarishlar ta'lim mazmuni, metodlari va pedagogik faoliyatning mohiyatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, mehnat bozori ehtiyojlarining o'zgarishi hamda bilimlarning tez eskirishi ta'lim tizimini transformatsiyalashning asosiy omillariga aylandi. Shu sababli zamonaviy ta'limda bilimlarni uzatishdan ko'ra, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim olish, muammolarni hal qilish va bilimlarni amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagogik faoliyatning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini zamonaviy xalqaro hamda milliy ilmiy manbalar asosida tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va yechimlarni muhokama uchun taklif qilishdan iborat.

Asosiy qism. Tadqiqotda kontent tahlili, qiyosiy tahlil, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi. Kontent tahlili orqali xalqaro va milliy ilmiy manbalar mazmuni o'rganildi, qiyosiy tahlil yordamida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari xalqaro tajriba bilan solishtirildi. Analiz va sintez esa turli manbalarda keltirilgan nazariy qarashlarni umumlashtirish va yagona ilmiy xulosaga kelish imkonini berdi.

Mavzu bo'yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tahliliy umumlashtirish amalga oshirildi.

YUNESCO tomonidan e'lon qilingan "Ta'lim va tadqiqotda generativ sun'iy intellektdan foydalanish qo'llanmasi"da SIDan foydalanish xavfi, etik me'yorlar, maxfiylik va ta'limda foydalanish me'yori bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan. Unda YUNESCO bosh direktorining ta'lim bo'yicha o'rinbosari Stefania Giannini quyidagi jumlani ta'kidlagan: "Sun'iy intellekt inson aql-zakovatini egallamasligi kerak. Aksincha, bu bizni insonga xos bilim va o'rganish haqidagi o'zimizdagi tushunchalarimizni qayta ko'rib chiqishga taklif qiladi" [1; B. 5.]. Ushbu fikr bugungi kunda ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning asosiy tamoyilini ifodalaydi. Ya'ni sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini bosuvchi vosita emas, balki uning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, ta'lim sifatini oshiruvchi va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limni tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiya sifatida qaralmoqda. Shu bois zamonaviy ta'lim transformatsiyasi sharoitida sun'iy intellektdan oqilona va mas'uliyatli foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning raqamli hamda pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Qo'llanmada generativ SIDan foydalanishning ta'limga ta'siri, ta'lim va tadqiqotda foydalanish bo'yicha siyosiy, ijodiy, axloqiy asoslari izchil tushuntirib o'tilgan.

Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagogik faoliyatning mazmuni tubdan kengaymoqda: o'qituvchi endi faqat bilim beruvchi shaxs emas, balki ta'lim jarayonini yangilovchi, raqamli resurslarni tanlay oluvchi, ularni didaktik maqsadga moslashtiruvchi va o'quvchini faol subyektga aylantiruvchi professionalga aylanmoqda.

Liu Yuting va hammualliflarining (2026) tadqiqoti aynan shu o'zgarishni empirik jihatdan tasdiqlaydi, chunki ular o'qituvchi innovatsiyasi raqamli resurslardan foydalanishning muhim bashoratchisi ekanini aniqlaganlar [2; B. 3–7.].

Mazkur tadqiqotning eng muhim jihati shundaki, raqamli resurslardan foydalanish faqat texnik imkoniyat yoki dasturiy ta'minot mavjudligi bilan belgilanmaydi. Mualliflar o'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchi, kasbiy hamkorlik tajribasi va malaka oshirish jarayonlari bu munosabatni kuchaytiruvchi omillar ekanini ko'rsatadi. Demak, pedagogik faoliyat mazmuniga texnologiyani bilishdan tashqari, o'ziga ishonch, jamoaviy ishlash, refleksiya va doimiy professional o'sish kabi komponentlar ham kiradi.

An'anaviy modelda o'qituvchi asosan tayyor bilimni uzatuvchi bo'lsa, zamonaviy modelda u ta'lim resurslarini tanlash, sinovdan o'tkazish, uyg'unlashtirish va o'quvchilar ehtiyojiga moslashtirish orqali o'quv faoliyatini boshqaradi. Shu ma'noda, innovatsion pedagogik faoliyat shunchaki yangi texnologiyani qo'llash emas, balki uni maqsadga yo'naltirilgan didaktik vositaga aylantirishdir.

Shuningdek, jamoaviy hamkorlikning o'zni ham Liu maqolasida yoritib o'tilgan. O'qituvchilar o'rtasidagi professional aloqalar raqamli resurslardan samarali foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki hamkorlik bilim almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Bu holat pedagogik faoliyatning ijtimoiy tabiatini ko'rsatadi: ta'lim transformatsiyasi individual mahorat bilan birga jamoaviy intellektni ham talab qiladi.

Kasbiy rivojlanish esa ushbu jarayonning barqarorligini ta'minlaydi. Liu va boshqalar malaka oshirish innovatsiya, o'zini samaradorlik va hamkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishini ko'rsatgan. Bu shuni bildiradiki, muntazam professional rivojlanish bo'lmasa, hatto texnologik infratuzilma mavjud bo'lsa ham, pedagogik faoliyat to'laqonli transformatsiyalashmaydi.

Pedagogik faoliyatning mazmunini faqat innovatsion faoliyat orqali emas, balki o'qituvchining umumiy professionalligi nuqtayi nazaridan ham baholash zarur. Shu jihatdan Adventi Silaban va hammualliflarining tadqiqoti ushbu masalani yanada kengroq yoritadi.

Silaban va boshqalar (2026) tomonidan raqamli texnologiyalar davrida o'qituvchi professionalligini ta'lim sifati bilan bog'liq holda tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogning kasbiy qiyofasi nafaqat fan mazmunini bilish, balki raqamli muhitda didaktik qarorlar qabul qila olish, texnologik vositalarni o'qitish maqsadiga mos tanlash va ularni pedagogik jarayonga integratsiya qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Bunday yondashuvda professionallikning markazida TPACK modeli turadi, chunki u texnologik, pedagogik va predmetga oid bilimlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlab, o'qituvchiga mazmunni to'g'ri tanlash, metodni moslashtirish va raqamli vositalarni samarali qo'llash imkonini beradi [3; B. 2–5.].

Shuningdek, o'qituvchining professionalligi endilikda faqat yakka tartibdagi mahorat emas, balki doimiy kasbiy o'sish, innovatsion yondashuvlarga ochiqlik va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish qobiliyatini ham anglatadi. TPACK va

unga yaqin modellar asosida olib borilgan tadqiqotlar raqamli pedagogika sharoitida o'qituvchi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, tadqiqotchilik faoliyati va fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Demak, pedagogik faoliyatning mazmuni ta'lim texnologiyalarini faqat qo'llash emas, balki ularni didaktik jihatdan asoslangan, maqsadli va samarali ravishda integratsiya qilishdan iborat bo'lmoqda.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham bugungi ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etish, uning o'ziga xos jihatlari o'rganish ko'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotchi olimlardan I. Isomov, N. Muslimov, D. Ro'ziyev, N. Erkaboyeva va boshqa ko'plab pedagog olimlar ishlarini sanab o'tish mumkin.

Xususan, I. Isomov ishlari ta'lim transformatsiyasi davrida pedagogning roli faqat dars beruvchi bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Pedagog endi o'z faoliyatida moslashuvchan, innovatsion va uzluksiz o'rganishga tayyor mutaxassis bo'lishi kerak [4; B. 22–24.].

Bu yondashuv N. Muslimovning "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyiliga hamohang bo'lib, kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish, innovatsion o'zgarishlarga moslashish pedagog uchun pedagogik jarayonni sifatli tashkil etish nuqtayi nazaridan muhim ekanligini ko'rsatadi [5; B. 15–17.].

Zamonaviy ta'lim tizimini transformatsiyalash jarayonida pedagoglar oldida bir qator muhokamaga sabab bo'luvchi dolzarb muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan:

o'quvchilarning ishonchliligi shubhali bo'lgan katta hajmdagi axborot oqimi ta'sirida shakllanishi;

sun'iy intellekt platformalaridan noto'g'ri va nazoratsiz foydalanish natijasida ularning ongida salbiy g'oyalar va noto'g'ri qarashlarning shakllanishi;

o'quvchilarning SI vositalariga ortiqcha bog'lanib qolishi (texnologik qaramlik) natijasida mustaqil fikrlash va muammoni yechish qobiliyatining pasayishi;

xotira va diqqatni jamlash qobiliyatining susayishi, chunki ma'lumot doimo "qo'l ostida" mavjud bo'lgani sababli uni yodlash yoki chuqur o'zlashtirish zarurati kamayadi;

ijodiy fikrlash va original g'oyalar ishlab chiqish o'rniga tayyor SI natijalarini nusxalash (plagiat muammosi) kengaymoqda;

dezinformatsiya va "deepfake" kabi soxta kontentni haqiqiy ma'lumotdan farqlay olmaslik;

shaxsiy ma'lumotlarning himoyasiz qolishi va raqamli maxfiylikka oid savodxonlikning yetishmasligi;

SI orqali yaratilgan kontentning muallifligi va intellektual mulk huquqlariga oid tushunchalarning shakllanmaganligi;

haddan tashqari raqamlashtirish natijasida o'quvchilarda ijtimoiy muloqot ko'nikmalarining zaiflashishi;

virtual muhitda vaqtni ko'p o'tkazish tufayli real hayotdagi shaxslararo munosabatlarning kamayishi;

ekran oldida uzoq vaqt o'tirish oqibatida jismoniy va psixik salomatlikka salbiy ta'sir (uyqu sifatining pasayishi, tashvish darajasining ortishi);

o'qituvchilarning o'zlari ham SI texnologiyalaridan foydalanish metodikasini yetarlicha egallamaganligi;

ta'lim dasturlari va standartlarning texnologik o'zgarishlar sur'atiga moslasha olmayotgani;

SI vositalaridan foydalanishni nazorat qilish va baholashning aniq mezonlari ishlab chiqilmaganligi;

turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdagi o'quvchilar o'rtasida sifatli SI vositalariga kirish imkoniyatidagi tafovut ("raqamli tafovut" — digital divide);

qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi texnologik ta'minot farqi.

Bundan tashqari, ushbu jarayonlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va olingan ma'lumotni har tomonlama baholash ko'nikmalarining susayishiga olib kelmoqda. Natijada o'quvchilarda axborotni tanqidiy idrok etish o'rniga tayyor javoblarni mexanik ravishda qabul qilish tendensiyasi kuchaymoqda, bu esa ularning intellektual mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois o'quvchilarda media va axborot savodxonligini, shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan ongli hamda mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda. Mazkur muammoning muvaffaqiyatli hal etilishi esa, birinchi navbatda, pedagog kadrlarning, xususan, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik sifatiga bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, ularni ushbu murakkab jarayonlarga oldindan tayyorlash masalasini alohida dolzarb muammo sifatida keltirib chiqaradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarning kompleks tabiatga ega ekanligini inobatga olgan holda, ularni bartaraf etish ham tizimli va ko'p bosqichli yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchi navbatda, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Xususan, pedagogika yo'nalishlarining o'quv rejalariga "Raqamli va sun'iy intellekt savodxonligi", "Media savodxonlik asoslari" kabi maxsus fanlarni joriy etish, shuningdek, talabalarda SI vositalarini didaktik maqsadlarda samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish lozim. Bunday yondashuv nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarining uyg'un shakllanishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, amaldagi pedagog kadrlarning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ta'lim xodimlari uchun SI texnologiyalaridan foydalanish metodikasiga bag'ishlangan maxsus kurslar, seminar va treninglarni tizimli asosda tashkil etish, shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalarni keng targ'ib qilish samarali natija berishi mumkin.

Uchinchidan, ta'lim jarayonining bevosita ishtirokchisi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasini yangilash talab etiladi. Xususan, darslarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar — manbalarni tahlil qilish, dalillarni tekshirish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash kabi mashqlarni tizimli qo'llash orqali o'quvchilarda axborotni tanqidiy

idrok etish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarga axborot manbalarining ishonchliligini baholash mezonlarini (muallif, sana, dalillanganlik darajasi) o'rgatish alohida ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, institutsional va normativ-huquqiy darajada ham tegishli choralar ko'rilishi zarur. Bunga ta'lim muassasalarida SI vositalaridan foydalanish bo'yicha aniq qoidalar va axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini zamonaviy raqamli transformatsiya talablariga muvofiqlashtirish kiradi.

Nihoyat, ushbu jarayonda o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik xavfsizligini ta'minlash masalasi ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Bu maqsadda maktab psixologlari, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yaxlit tarbiyaviy muhitni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, milliy ta'lim siyosati va xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish natijasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari global rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda olib borilayotgani aniqlandi. Ta'limni raqamlashtirish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish, o'qituvchilar malakasini oshirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pedagogik faoliyat mazmunining yangilanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur jarayonlarning samaradorligi ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchilarda transformatsion kompetensiyalarning shakllanish darajasiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shu munosabat bilan ishda keltirilgan yechimlarning izchil va kompleks tarzda amalga oshirilishi zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bilan bog'liq muammolarni samarali bartaraf etish, shuningdek, o'quvchilarda va bo'lajak pedagoglarda raqamli davr talablariga mos kasbiy hamda shaxsiy sifatlarni shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research (Ta'lim va tadqiqotda generativ sun'iy intellektdan foydalanish qo'llanmasi). — Paris: UNESCO, 2023.
2. Yuting L., Ahmad Rashid R., Xiaoying Z., Cheng C. The Dynamics of Educational Transformation: Empirical Insights into How Innovation, Collaboration, and Professional Development Influence Digital Resource Usage across 81 Countries // PLOS ONE. — 2026. — Vol. 21, No. 3. — Art. e0341914.
3. Silaban A., Sitanggang D., Tarigan M., Sembiring J., Dewi R. Peran Profesionalisme Guru pada Era Teknologi Digital dalam Meningkatkan Kualitas Pembelajaran: Systematic Literature Review // Educational Journal. — 2026. — Vol. 1, No. 4. — P. 1484–1498.
4. Isomov I. I. Ta'limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish istiqbollari // "Rahbar va pedagog kadrlarning "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirish: innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. — Toshkent, 2023.
5. Muslimov N. A. "Hayot davomida ta'lim olish"da ehtiyojga asoslangan kurslarni tashkil etish zaruriyati // "Rahbar va pedagog kadrlarning "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirish: innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. — Toshkent, 2023.